



RUS KNYAZLIKLARIDA SIYOSIY TARQOQLIK VA ULARNING QIPCHOQLARGA QARSHI BIRLASHUVI

Hamrayev Erali Ergash o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tarix yo'nalishi talabasi

Tel: +998997744505 E – pochta eroliamrayev2001@gmail.com

Tojimurodov Mansurbek Sheraliyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tarix yo'nalishi talabasi

Tel: +998976455434 E – pochta tojimurodovmansurbek1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rus knyazligida sodir bo'lgan siyosiy voqealar, knyazlarning birlashib qipchoqlar qarshi kurashishi, Moskva shahriga asos solinishi, yangi shaharlarning paydo bo'lishi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Qipchoqlar, Lyubech, Svatopolk, Vladimir Monomax, Dolobsk, Yuriy Dolgurukiy, Kiyev, Don dashtlari, Vladimir-Suzldal, Minsk, Novgorod, Smolensk, Vsevolod Yuryevich.

Аннотация: В данной статье содержатся сведения о политических событиях, происходивших в Русском княжестве, объединении князей для борьбы с кипчаками, основании города Москвы, возникновении новых городов.

Ключевые слова: Кипчаклар, Любеч, Святополк, Владимир Мономах, Долобск, Юрий Долгорукий, Киев, Донские степи, Владимир-Суздаль, Минск, Новгород, Смоленск, Всеволод Юрьевич.

Annotation: This article contains information about the political events that took place in the Russian principality, the princes united to fight against the Kipchaks, the founding of the city of Moscow, and the emergence of new cities.

Keywords: Kipchaklar, Lyubech, Svatopolk, Vladimir Monomakh, Dolobsk, Yuri Dolgurukiy, Kiev, Don steppes, Vladimir-Suzldal, Minsk, Novgorod, Smolensk, Vsevolod Yuryevich.

Qipchoqlarga qarshi kurashish zaruriyati Rus knyazliklarini birlashishga undaydi. Lekin 1097-yilgi Lyubechdagi syezd "barcha o'z yeriga egalik" qilsin degan karorni kabul kilib, Rus yerlaridagi siyosiy tarqoqlikni qonunlashtiradi¹². Faqat 1101-yilga kelib, knyazlar o'zaro yarashib, keyingi yili qipchoqlarga qarshi yurishlarni mo'ljallashadi. Vladimir Monomax 1103-yili Svatopolk huzuriga Dolobskga kelib, uni dala ishlari boshlangunga kadar qipchoqlarga qarshi yurishga chorlaydi. Rus Yetgata knyazliklarining birlashgan qo'shini Dnepr bo'ylab qayiqlarda va otlarda janubga siljib, so'ng, sharqqa - dasht tomonga buriladi. Rus drujinalari hujumini kutmagan qipchoqlar ko'chishga tutinadilar. G'oliblar katta o'ljalar bilan bir qatorda, asirlar olib, asirlikdagi o'z yurtdoshlarini xalos etishadi. 1107-yildan so'ng urush harakatlari dushman hududiga ko'chiriladi.

¹² Salimov T.O', Jahon tarixi (Yevropa mamlakatlari V-XV asrlarda), Toshkent, "Unoversitet", 2014. B – 238-239.



Vladimir Monomax (1113-1125-yy.)¹³ Kiyevda knyazlik qilish paytida qipchoqlar bilan urushlar faqat ular yashagan hududda olib borilgan. Monomaxning o'limidan so'ng, qipchoqlarning Rus yerlarini talashga qaratilgan xarakterlarini Monomaxning vorisi Yaropolk qaytaradi. Lekin uning o'limidan so'ng, hokimiyatni qipchoqlar bilan do'stlashgan Vsevolod olib, u avvalgi amaldorlarni chetlatadi. Vsevoloddan so'ng Kiyev knyazligi Monomaxning nabirasi Izaslavga o'tadi. Endilikda qipchoqlar muammasidan uning amakisi Yuriy Dolgorukiy¹⁴ o'z maqsadida - qanday bo'lmasin, Kiyevni olish uchun foydalanishga intilgan. Ayepaxonning kuyovi bo'lgan bu knyaz qipchoqlarni Kiyevga qarshi besh marta boshlab kelib, xatto o'zining ona shahri Pereyaslavlning talanishiga sababchi bo'ladi. Knyaz Yuriy Vladimirovich Kiyev taxtiga erishsa-da, davlatni uzoq boshqara olmaydi.

Uch yil ham o'tmasdan, uni zaxarlab o'ldirishadi. Kiyev knyazligi Ros daryosi xavzasida yashagan torg va boshqa turkiy qabilalar bilan hamkorlikda 1159 - 1160 va 1162-yillari qipchoqlarga zarba berishga erishadi. Ammo o'zaro kurashlar g'alaba natijalarini yo'qqa chiqaradi. XII asrning 70-yillarida Don dashtlarida Konchak¹⁵ xon boshchiligida qipchoqlarning yirik davlat birlashmasi shakllanadi. 70-80 - yillarda Rus knyazliklarining qipchoqlarga qarshi kurashi gox galaba, gox mag'lubiyat bilan davom etib, muvaffaqiyatsizliklariga uchrashishining asosiy sababi, siyosiy tarqoqlik bo'lgan. Undan tashqari, hokimiyat uchun kurashayotgan knyazlarning aksariyati qipchoqlar bilan ittifoqqa kirib, ulardan yordam olishi ham vaziyatni murakkablashtirgan. 1202-yili kishda Volin knyazi Roman Mstislavich qipchoqlarga qarshi yurish qilib, ko'plab asirlarni xalos etadi¹⁶. 1206-yilning aprelida Razan knyazi Roman dashtliklariga zarba berib, ko'plab chorvani qo'lga kiritib, asirlarni ozod qiladi. Bu Rus knyazlarining qipchoqlarga qarshi so'nggi yurishi edi.

Vladimir - Suzdal knyazligi. "Buyuk o'rmon ortidagi yer". XII asrning o'rtalarida kachonlardir yaxlit Kiyev Rusi 15 ta mustaqil knyazliklarga bo'linib ketadi. Vladimir - Suzdal, Polosk - Minsk, Turov - Pinsk, Smollensk, Murom - Razan, Chernigov, Kiyev, Pereyaslav, Galich-Volin, Tmutarakan knyazliklari, Novgorod respublikasi va keyinchalik undan ajralib chiqqan Pskov knyazligi bo'lgan¹⁷. Ulardan eng yiriklari Vladimir - Suzdal hamda Galich — Volin knyazliklari va Novgorod respublikasi bo'lgan. Vladimir - Suzdal

¹³ Vladimir Vsevolodovich Monomax (qadimgi rus Volodimir (-mđr' ^[1]) Vsevolozhich Monomax ; suvga cho'mgan Vasiliy ; 1053 yil 26 may - 1125 yil 19 may) - Rostov shahzodasi (1066-1073), Smolensk knyazi (18 - 1073) ¹, Chernigov (1078 - 1094), Pereyaslavl (1094 - 1113), Kiev Buyuk Gertsogi (1113 - 1125), davlat arbobi, harbiy rahbar, yozuvchi, mutafakkir. Omon qolgan muhrlarda Vladimir Monomax Vizantiya unvoni ^{[3][4]} tarzida *butun rus erlarining arxonidan* ham foydalangan .

¹⁴ Yuriy (Jorj) Vladimirovich , laqabli Dolgorukiy (qadimgi ruscha: Gyurgi, Dyurgi ; 1090-yillar - 1157 yil 15 may , Kiev) - Rostov-Suzdal shahzodasi va Kiev Buyuk Gertsogi , 8 o'g'ilning 6 yoki 7-si Vladimir Vsevolodovich Monomax . Ushbu knyaz davrida Moskva xronikalarda birinchi marta eslatib o'tilgan .

¹⁵ Konchak, Konjak — qipchoqlar xoni (1172—1203). Qipchoq xonlaridan O'troqning o'g'li. Sharukanning nabirasi. Otasi o'zining suyuqli farzandini yoshligida Kavkaz tog'larida saqlagan. 12-asrning 2-yarmida Don daryosi havzasidagi qipchoqlarni birlashtirib, qudratli ko'chmanchi davlat uyushmasi barpo qilgan. K. rus knyazlari bilan qarindoshlik (K.ning qizi Novgorod-Severskiy knyazi Igor Svyatoslavichning o'g'liga tekkan edi) va ba'zan ittifoqchilik munosabatlarida bo'lib, Kiyevga qarshi muttasil kurash olib borgan. U Lukomore (Azovning shim. dagi hudud) xoni Kobek bilan ittifoq bo'lib, Pereyaslavl yeriga bir necha bor (1174, 1178, 1183) harbiy yurishlar qilgan; 1185-yil Igor Svyatoslavichni mag'lubiyatga uchratib, uni asir olgan, so'ngra Pereyaslavlni besamar qamal qilgan. 1187-yil K. yana Kiyev yerlariga chopqun uyushtirgan, Chernigov knyazligini egallagan

¹⁶ Salimov T.O', Jahon tarixi (Yevropa mamlakatlari V-XV asrlarda), Toshkent, "Unoversitet", 2014. B – 239.

¹⁷ Osha yerda. B – 239.



knyazligi hududida o'rmonlar ko'p bo'lib, XII asrda Moskva o'rmon yonida joylashgan. IX asrga qadar bu hududda sharqiy fin-ugor qabilalari: merya, ves va muromlar yashab, qo'shni slavan - krivichlar va vaticlar bilan asta-sekin aralashib ketganlar.

XI asr oxiridan bu hududlarga Novgorod va Smolensk yerlaridan, so'ng feodal urushlari va qipchoqlar bosqini davrida janubiy viloyatlardan ko'chib kelgan aholi joylashgan¹⁸. Janublik aholi bilan ko'plab dara va shaharlar nomlari ham kelib qolgan. Xususan, Libed, Irnen, Trubej daryochalari, Zvenigorod, Galich, Vishgorod, Starodub va boshqa shaharlar nomlari shu tariqa paydo bo'lgan. Ular qatorida yangi shaharlar - Moskva, Nijniy Novgorod, Dmitrov, Kostroma, Buyuk Ustug, Gorodes va boshqalar ham bo'lgan. O'lkada XIII asrga kelib, 80 ga yaqin shaharlar bo'lgan. Savdo hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi aholi. XII-XIII asrlarda, ayniqsa, yosh shaharlarda (jumladan, Klyzmadagi Vladimirda) tez ko'payadi¹⁹. XI asr oxirida o'lka Vladimir Monomax mulklariga kirgan, uning davrida Klyzmadagi Vladimir shahriga (1108-yili) asos solingan. Monomaxning o'limidan so'ng bu hududda knyazning o'g'li Yuriy Dolgorukiy (1125-1157-yy.) yangi mahalliy sulolaga asos soldi. Kiyevni egallash uchun kurashgan knyaz, ayni paytda, Novgorodda ham o'z ta'sirini o'tkazishga, barcha Rus yerlarini birlashtirishga intilgan. Knyaz mahalliy kuchli boyarlarni zaiflashtirishga intilgan.

Yuriy Dolgarukiyning o'g'li Andrey Rostov - Suzdal yerida (1157-1174-yy.) knyazlik qiladi. U Rusdagi eng kuchli knyazlardan biri edi. Andrey ham otasi singari Kiyev va Novgorod ustidan o'z hukmronligini o'tkazishga intilgan. U 1169-yili Kiyevga va uni ergallashga intilgan knyazlarga zarba beradi. Shundan so'ng Andrey Novgorodda ham o'z kishisini knyazlikka qo'yishga erishadi. Knyaz Andrey Rostov - Suzdalda o'z mavqeyini kuchaytirish uchun kuchli boyarlarga qarshi kurashadi. Andreyni Vladimir va boshqa yosh shaharlar gullaydi. Natijada, knyaz poytaxtni Vladimirda ko'chirib, uning yaqinidagi Bogolyubovoda o'z qarorgohini bunyod etadi. Knyazning Bogolyubskiy laqabi ham ana shu joy nomidan olingan. Lekin Andrey ham kurashni yakuniga yetqaza olmaydi. Boyarlar fitnasi knyazning o'limiga sabab bo'ladi. Fitnachi boyarlar ikki yil davomida aholini talab, zulm o'tkazadi. Taxtga Andreyning ukasi Vsevolod Yuryevich (1176-1212-yy.)²⁰ kelib knyazlik hokimiyatini mustahkamlay boshlaydi. Boyarlarga qarshi kurashgan knyaz, savdogarlar va boy hunarmandlarga qator imtiyozlar beradi. Vsevolod Novgorodni o'zi yuborgan knyaz, amaldorlar va noiblarni qabul qilishga majbur etadi.

Kiyev knyazi Vsevolodning hokimiyatini tan oladi. Shahrada Vladimir - Suzdal lashkari bulgorlarga, Volgabo'yida - mordvalar va boshqa elatlarga qarshi yurushlar qilgan. Vladimir shahri Volga daryosi orqali Kavkaz va Xorazm bilan savdo-sotiq olib borgan²¹. Lekin knyazning qudrati Rus yerlarida emas, Vladimir - Suzdal knyazligida ham siyosiy

¹⁸ Salimov T,O', Jahon tarixi (Yevropa mamlakatlari V-XV asrlarda), Toshkent, "Unoversitet", 2014. B – 240-241.

¹⁹ Osha yerda. B – 240.

²⁰ Vsevolod Yurievich Katta uy (1154 yil suvga cho'mgan Dmitriy - 1212 yil 15 aprel) - 1176 yildan Vladimirda Buyuk Gertsogi, bundan oldin u Kievda 35 kun (1173 yil 24 fevraldan 24 martgacha) hukmronlik qilgan. Vsevolod Yuryevich - Andrey Bogolyubskiyning ukasi Yuriy Dolgorukiyning o'g'li^[1]. Uning qo'l ostida Vladimir Buyuk Gertsogligi eng katta kuchga erishdi. U "Katta uy" laqabini oldi, chunki uning katta avlodi bor edi - 12 farzand, shu jumladan sakkiz o'g'il.

²¹ Salimov T,O', Jahon tarixi (Yevropa mamlakatlari V-XV asrlarda), Toshkent, "Unoversitet", 2014. B – 241.



tarqoqlikka chek qo'ya olmaydi, Vsevolodning vafotidan so'ng knyazlikda yakka feodal urushlari boshlanadi. Vsevolodning o'gallaridan biri Konstantin 1216-yili buyuk knyaz bo'ladi. Ammo knyazlik qator mustaqil mulklarga bo'linib, ularni Vsevolodning o'gallari boshqargan. Faqat Yuriy Vsevolodovich davrida (1218-1238-yy.) knyazlik kuchayib, sharq tomonga kengaya boradi. Bulg'orlarga qarshi yurishdan so'ng, 1226-yili Volga sohilida yangi — Nijniy Novgorod shaxriga asos solinadi. Vladimir feodallari mordvalar yerlarini egallash imkoniga ega bo'ladilar. Yuriy va boshka maxalliy knyazlar buyuk Novgorodni xamda Razan va Smolensk kiyazliklarini bo'sundirishga kirishadi. Suzdal knyazi Yaroslav Vsevolodovich 1236-yili Kiyev knyazligini olsa, uning o'gli Aleksandr (keyinchalik - Nevskiy) - Buyuk Novgorod knyazi buladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak XIII asrdan XV asrgacha bo'lgan davrda Rus knyazligi siyosiy tarqoqlikdan chiqa boshladi. Knyazlarning birlashuvi natijasida qipchoqlarga qarshi kurash boshlandi. Vladimir Monomax davrida urush qipchoqlar yeriga ko'chdi. Bu davrda yangi shaharlarning paydo bo'lishi, Moskva shahriga asos solinishi kabi voqealar ro'y bergan. Yuriy Dolgarukiyning o'g'li Andrey Rostov - Suzdal yerida knyazlik qiladi. U Rusdagi eng kuchli knyazlardan biri edi. Andrey ham otasi singari Kiyev va Novgorod ustidan o'z hukmronligini o'tkazishga intilgan. U 1169-yili Kiyevga va uni ergallashga intilgan knyazlarga zarba beradi. Shundan so'ng Andrey Novgorodda ham o'z kishisini knyazlikka qo'yishga erishadi. Knyaz Andrey Rostov - Suzdalda o'z mavqeini kuchaytirish uchun kuchli boyarlarga qarshi kurashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

5. Salimov T,O', Jahon tarixi (Yevropa mamlakatlari V-XV asrlarda), Toshkent, "Unoversitet", 2014 – yil, 238-247 b.
6. Qosimov E, Nuriddinov E, Mulladjanova R, Jahon tarixi qadimgi va o'rta asrlar davri, Toshkent, 2013 – yil, 411-427 b.
7. Семенов В. Ф. Ўрта асрлар тарихи. Педагогика институтлари учун. – Т.: Ўқитувчи, 1973.
8. Қурбонгалиева Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув-методик қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1991.